Raqamli ta'lim muhitida o'smirlarning o'zini anglash jarayoni va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri.....	567
Zufarova Yulduzxon Muxiddin qizi	
Интерпретация биологических терминов на русском языке	570
Абдуллаева Нигора Курбановна	
Жанровые особенности рассказа-антиутопии В. С. Маканина "Однодневная война".....	574
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Мифопоэтика и аксиологические функции архетипа матери-хранительницы в повестях В. Г. Распутина "Последний срок" и "Прощание с матёрой"	578
Коржова Шахло Одилжоновна	
Методологические аспекты изучения адаптаций Песчанковых (Gerbillidae) к аридным условиям: анализ классических и современных исследований	585
Нурова Хикоят Кенжаевна	
К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков	590
Рахимова Мухайё Акмаловна	

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAHORATNI RIVOJLANTIRISH

G. X. Narzullayeva

Perfect University Gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

F. M. Miraximova

Perfect University Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya davrida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish global miqyosdagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanib, u pedagoglardan zamonaviy texnologiyalar, raqamli didaktika hamda innovatsion o'qitish metodikalarini mukammal o'zlashtirishni talab etadi. Bunda O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi islohotlari, xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda xalqaro tajriba (Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy, Saudiya Arabistoni) qiyosiy tahlil qilingan. Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda texnologik vositalar, xususan, sun'iy intellekt, interaktiv platformalar va masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'llari yoritib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahoratni rivojlantirishda nafaqat texnik ko'nikmalar, balki hamkorlik, refleksiv amaliyot va doimiy kasbiy rivojlanish (uzluksiz ta'lim) tizimini raqamli didaktika bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada keltirilgan xulosalar oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini takomillashtirish va bo'lajak o'qituvchilarni raqamli asr talablariga mos ravishda tayyorlashda amaliy yordam beradi. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogning kasbiy tayyorgarligi ta'lim sifatini oshirish va yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning asosiy kafolati ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, raqamli didaktika, pedagogik mahorat, raqamli kompetensiya, ta'lim samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, masofaviy ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, sun'iy intellekt.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the development of pedagogical skills for future teachers in the era of digital transformation. The digitalization of the education system is currently one of the most pressing global issues, requiring educators to master modern technologies, digital didactics, and innovative teaching methods. The article presents a comparative analysis of educational reforms in the Republic of Uzbekistan, specifically focusing on initiatives within the "Digital Uzbekistan - 2030" strategy, as well as international experiences (South Korea, Singapore, China, Saudi Arabia). It explores ways to effectively utilize technological tools, such as artificial intelligence, interactive platforms, and distance learning opportunities, in shaping pedagogical competencies within a digital educational environment. Research results indicate that developing pedagogical skills requires more than just technical proficiency; it necessitates integrating collaboration, reflective practice, and a system of continuous professional development with digital didactics. The conclusions presented in the article offer practical guidance for improving higher education curricula and preparing future teachers to meet the demands of the digital age. It is argued that a teacher's professional preparedness in the context of digital transformation is a primary guarantee for enhancing the quality of education and fostering the holistic development of the younger generation.

Key words: digital transformation, digital didactics, pedagogical skill, digital competence, educational efficiency, innovative technologies, professional development, distance learning, digital educational environment, artificial intelligence.



Аннотация: В данной статье проводится научно-теоретический анализ вопросов развития педагогического мастерства будущих учителей в эпоху цифровой трансформации. Цифровизация системы образования сегодня является одной из наиболее актуальных задач глобального масштаба, требующей от педагогов глубокого освоения современных технологий, цифровой дидактики и инновационных методов обучения. В статье проводится сравнительный анализ реформ в сфере образования Республики Узбекистан, в частности работ, проводимых в рамках стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030”, а также международного опыта (Южная Корея, Сингапур, Китай, Саудовская Аравия). Освещены пути эффективного использования технологических инструментов, в частности искусственного интеллекта, интерактивных платформ и возможностей дистанционного обучения в формировании педагогических компетенций в цифровой образовательной среде. Результаты исследования показывают, что в развитии педагогического мастерства важное значение имеет не только овладение техническими навыками, но и интеграция сотрудничества, рефлексивной практики и системы непрерывного профессионального развития с цифровой дидактикой. Выводы, представленные в статье, окажут практическую помощь в совершенствовании учебных программ высших образовательных учреждений и подготовке будущих учителей в соответствии с требованиями цифровой эпохи. Обосновано, что профессиональная подготовка педагога в условиях цифровой трансформации является главной гарантией повышения качества образования и воспитания молодого поколения гармонично развитыми личностями.

Ключевые слова: цифровая трансформация, цифровая дидактика, педагогическое мастерство, цифровая компетенция, эффективность образования, инновационные технологии, профессиональное развитие, дистанционное обучение, цифровая образовательная среда, искусственный интеллект.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda ta'lim-tarbiya jarayonida uzluksiz islohotlar amalga oshirilmoqda va natijada ta'lim tizimi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Raqamli transformatsiyalarning ta'lim sohasiga kirib kelishi bilan qator zamonaviy texnologik islohotlar amalga oshirilib borilmoqda. Davlatimizda ham zamonaviy ta'lim tizimi isloh etilib, ta'lim samaradorligi oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni - bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi!”^[1], deb aytganlar va bu fikrning natijasida ta'lim-tarbiya jarayoni yanada mustahkamlanmoqda. Dunyo ta'lim standartlariga mos keladigan raqamli ta'lim tizimi joriy etilib, natijada ta'limni tashkil etish bosqichidan tortib ta'limni baholash va monitoring bosqichlarigacha zamonaviy ta'lim islohotlaridan foydalanilmoqda. Bundan tashqari, pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Bundan kelib chiqib, mamlakatimizda o'qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish malakasi oshirib borilmoqda. Turli xildagi o'quv mashg'ulotlari va malaka oshirish kurslari tashkil etilib, natijada o'qituvchilar ichida raqamli savodxonlik oshib bormoqda. Bu esa davlat ta'lim siyosatida islohotlarning rivojlanishi va tobora takomillashib borishiga qadam qo'yadi.

Bugungi yuksak texnologiyalar zamonida ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bordi. “Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali kadrlarga bo'lgan talab ortib, o'z sohasi bo'yicha fundamental bilimlarni mukammal egallagan, kasbiy tayyorligi yuqori bo'lgan hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni amaliyotda qo'llay oladigan ijodkor kadrlarni tayyorlash talab etiladi”^[2].

Xorijiy qator mamlakatlarning ta'lim sohasini o'rganib chiqish natijasida Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarda raqamli ta'lim tizimi joriy etilib, “Smart education”, ya'ni raqamli maktablar joriy etilmoqda. Buning asosiy vazifalaridan biri maktablarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish va masofaviy ta'limdagi sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishdan iborat. Bu davlatlarda raqamli sinfxonalar tashkil etilgan bo'lib, dars jarayonlarida ta'lim-tarbiya batamom raqamli texnologiyalar asosida tashkil etiladi. Xitoyda esa dars jarayonlari gologrammalar orqali o'tkaziladi, bunda ta'limning amaliyligi oshib, tabiat bilan uyg'unlik tamoyili asosida olib boriladi. Raqamli transformatsiyalardan unumli foydalanayotgan Saudiya Arabistonida esa ta'limni yanada rivojlantirish, pedagoglarning malakasini oshirish va texnologik vositalardan samarali foydalanish maqsadida maktablarda AI darslari joriy etilgan.

Raqamli ta'limga o'tishning ijobiy tomonlari xususida fikr yuritadigan bo'lsak, darsliklar elektron shaklda ekranlarga o'tdi, talabalar o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega bo'ldi, natijada internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllandi, bu esa ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tardi, iqtisodiy jihatdan vaqt va mablag' sarfini kamaytirdi. Aynan shuning uchun ham hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha sohalari rivojlandi, shu bilan birga ta'lim tizimining ham jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, davlat xizmatlarini elektron tartibda ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega. Buning tasdig'i o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son

1 <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/yangi-uzbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-buladi>

Farmoni 41-maqсадining beshinchi qismida “kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish”^[3] belgilanganligi juda katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, bu boradagi ishlarni takomillashtirish maqsadida 2020-yil 5-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi^[4] PF-6079-sonli² Farmoni qabul qilingan bo'lib, mazkur huquqiy qonunosti hujjati O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning ustuvor maqsadlari, muhim yo'nalishlari hamda istiqbolli vazifalarini belgilaydi. Bu farmon va buyruqlar natijasida pedagoglarning ham kasbiy faolligini oshirishga qaratilgan qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, pedagoglar uchun “raqamli savodxonlik”, “raqamli ta'lim”, “raqamli ta'lim muhiti”, “raqamli didaktika” dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, unda pedagoglar aynan shu dasturlar asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishmoqda. Raqamli kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislar yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalaydilar. Ushbu barkamol shaxslar ertangi kunda jahon hamjamiyatida yuqori natijalarni ko'rsatib, davlatimiz ta'lim tizimining qay darajada kuchli ekanligini namoyish etadilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimini raqamlashtirish va pedagoglarning kasbiy rivojlanishida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Raqamli kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlarini ilmiy asoslashda A. Ferrari raqamli kompetensiyani axborotni izlash, qayta ishlash, yaratish va raqamli muhitda samarali muloqot qilish ko'nikmalarining majmui sifatida talqin etadi. Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigComp modeli esa fuqarolarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim konseptual asoslaridan biri hisoblanadi.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari M. Koehler va P. Mishra tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli asosida keng o'rganilgan. Mazkur modelda pedagogik, texnologik va fan sohasiga oid bilimlarning integratsiyasi samarali ta'limni tashkil etishning asosiy omili sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, J. Hattie o'z tadqiqotlarida zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishini ta'kidlaydi.

Raqamli ta'lim muhiti va raqamli didaktika masalalari G.V. Potemkina, V.P. Bepalko hamda Ye.S. Polatlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Ular raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim mazmunini individuallashtirish, ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirish mumkinligini asoslab berganlar.

O'zbekistonlik olimlardan N.N. Azizxo'jayeva, U.N. Nishonaliyev, R.H. Jo'rayev va boshqa tadqiqotchilar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etganlar. Ularning ilmiy qarashlarida raqamli ta'lim muhiti pedagogning kasbiy mahoratini rivojlantirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi, raqamli kompetensiyalarini takomillashtirish va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda pedagoglarning kasbiy rivojlanishida raqamli transformatsiya va raqamli pedagogikaning o'rnini aniqlash hamda ularning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sirini baholash maqsadida nazariy va empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini raqamli ta'lim, raqamli pedagogika, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim tizimini raqamlashtirishga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Ilmiy manbalarni o'rganish jarayonida tahlil, sintez, qiyosiy tahlil va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot davomida pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida raqamli transformatsiya jarayonlariga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari hamda ilmiy adabiyotlar kontent tahlil qilindi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitining pedagogik faoliyatga ta'sirini baholashda mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim qismi sifatida tizimli yondashuv qo'llanilib, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni o'zaro bog'liq elementlar majmui sifatida o'rganildi. Bunda raqamli texnologiyalar, pedagogik mahorat, kasbiy rivojlanish va ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.

² <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



Olingan natijalarni umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari pedagoglarning kasbiy rivojlanishida raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish hamda raqamli pedagogika vositalaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli ta'lim tizimini yaratishda yorqin namunalardan biri bu oliy ta'lim tizimida HEMIS dasturi bo'lib, ta'limni raqamlashtirishning samarali vositasiga aylandi. Ta'limning barcha turlarini raqamlashtirish shu darajada muhimki, u aholining barcha qatlamiga sifatli ta'lim olish uchun qulay imkon yaratib bersin va ta'limni tashkil etishning boshqaruv tizimidagi xodimlar undan oson foydalana olsinlar. Raqamli ta'lim har bir ishtirokchining kompetensiyalariga ega bo'lishini taqozo etadi. Bu degani, har bir fuqaroning shaxsiy kompetensiyalari elektron muhitda shakllantiriladi. Uning ko'nikma, malaka, bilim, kompetensiyalari, to'plagan tajribasi va turli yutuqlari ko'rinib turadi. Bu fuqaroning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ko'rsatadi.

Dolzab masalalardan biri bo'lgan pedagogik mahoratni ijobiy rivojlantirish quyidagi yo'llardan biri yoki bir nechta orqali amalga oshirilishi mumkin:

Ta'limni modernizatsiya qilish. Ta'limning zamonaviy usullariga mos keluvchi o'qitish metodlarini ishlatish va yangi texnologiyalardan foydalanish orqali pedagogik mahoratni rivojlantirish mumkin.

O'quv materiallarini yaxshilash. O'quv materiallarini tayyorlash va ulardan foydalanish yordamida pedagogik mahoratni rivojlantirish mumkin. O'qituvchilar o'zlarining o'qitish usullariga mos keluvchi yangi o'quv materiallarini tuzish orqali talabalarning tushunishini oshirishga yordam beradilar. O'quv materiallari qo'llanmalar, darsliklar, maqolalar, interaktiv veb-saytlar va boshqa turdagi tahlil materiallari bo'lishi mumkin.

Hamkorlik va tajribali o'qituvchilardan o'rganish. Boshqa pedagogik mahorat mutaxassislarining fikr-mulohazalari, tajribalari va texnologiyalaridan foydalanish, ularning qo'shimcha ko'nikmalari va texnologiyalari haqida o'rganish.

O'qituvchining raqamli resurslardan foydalanishi. Bu qobiliyatga ega bo'lish ta'limning differensiallashuvi va individual, shaxsiy yondashuvini tarbiyalashi kerak. Bu bilan o'quvchilarni ham raqamli texnologiyalarga jalb qilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan kompetensiyalar pedagogga o'zini ko'rsatishi va faoliyatini takomillashtirishi uchun sharoit yaratib beradi.

G.V. Potemkinaning fikriga ko'ra, pedagogning raqamli kompetensiyalari ta'limning raqamli didaktik imkoniyatlari va resurslaridan foydalanish imkonini ham beradi. Raqamli didaktikaning rivojlanishi uchun didaktik loyihalar hamda birgalikda ta'lim olish va yangi bilimlarni o'zlashtirish ko'zda tutiladi [5].

Dars jarayonida sun'iy intellekt va raqamli pedagogika vositalarini qo'llash orqali o'qituvchilar o'z malakalarini oshirishlari, o'z ishlarini yanada samarali tashkil etishlari mumkin bo'ladi. Shu boisdan, raqamli transformatsiya ta'lim tizimida nafaqat texnologik, balki pedagogik va tashkiliy o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati asosan o'qituvchilarning yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyorligi va ularni amaliyotda qo'llash qobiliyatiga bog'liqdir. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida hamkorlik hamda tarmoq faoliyatining o'rni katta. Raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va ularni qo'llab-quvvatlash tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarning bilim darajasini oshirish va zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash uchun raqamli transformatsiya jarayonlarini to'g'ri boshqarish va rivojlantirish zarur [6].

Raqamli pedagogika vositalari o'qituvchilarga yangi metod va texnologiyalarni qo'llash imkonini beradi. Masalan, interaktiv ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar va multimedia resurslari ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida ushbu vositalarni o'zlashtirish va samarali qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Shuningdek, raqamli pedagogika yordamida o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga o'rgatish mumkin. Kasbiy rivojlanish strategiyalarining asosiy yo'nalishlaridan biri o'qituvchilarning doimiy ta'lim olishini ta'minlashdir. Raqamli transformatsiya sharoitida bu jarayon onlayn va aralash ta'lim shakllarida amalga oshirilmoqda. O'qituvchilar uchun mo'ljallangan vebinarlar, onlayn treninglar, sertifikatlash kurslari va professional hamjamiyatlar faoliyati ularning malakasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'qituvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishiga yordam beradi [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hozirgi pedagoglar raqamli muhitda ishlash bilan birga to'plangan ma'lumotlar bilan interfaol ishlash ko'nikmalariga ham ega bo'lishlari kerak. Shundagina ularda kasbiy mahorat oshadi va dars samaradorligining yuqori bo'lishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi”
2. Mamatqulova O.X. “Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini yuksaltirish orqali yoshlarda axloqiy-ma’naviy sifatlarni rivojlantirish mexanizmlari”. 2024-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni: Lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni: lex.uz
5. Беликов В. А. Образование. Деятельность. Личность: моногр. М.: Академия естествознания, 2010. 340 с.
6. Axmedov B. Raqamli ta’lim va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi. Toshkent, “Universitet” nashriyoti, 2021. - 198 b.
7. Islomova N. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limda. Toshkent, “Tafakkur” nashriyoti, 2023. - 175 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.